

CHEVARCHILIK TERMINOLOGIYSIDA GIPERO-GIPONIMIK MUNOSABATLAR

Mirzayeva Gulasal Ergashovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Xorijiy til va adabiyoti” quyi kurslar

kafedrasi, katta o'qituvchisi.

E-mail: mirzaevagulasal3@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida leksikasining boy qatlamlaridan biri bo'lgan chevarchilik terminologiyasida iyerarxik bog'lanishlar, xususan, gipero-giponimik munosabatlar tahlil qilinadi. Terminlarning tur-jins munosabatlari aniq misollar yordamida yoritilib, sohaning lingvistik manzarasi ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: chevarchilik terminologiyasi, leksik qatlam, iyerarxik munosabatlar, gipernim, giponim, tur-jins munosabatlari, lingvistik tahlil, ingliz tili, o'zbek tili, terminologik tizim

Annotation: This article analysis hierarchical relationships in sewing terminology- one of the rich lexical layers of the English and Uzbek languages- particularly focusing on hypernym-hyponym relations. The genus - species relationships of terms are illustrated with clear examples, revealing the linguistic landscape of the field.

Key words: sewing terminology, lexical layer, hierarchical relations, hypernym, hyponym, genus-species relations, linguistic analysis, English language, Uzbek language, terminology system.


Tilshunoslikda terminlar shunchaki soha so'zlari emas, balki muayyan tizimga solingan tushunchalar majmuidir. Bizga ma'lumki, giponimiya nazariyasiga 1968 yilda Layanz asos solgan. Shundan so'ng ushbu nazariy tushunchalarni fanga tadbiq etilishi natijasida rus tilshunosligi rivojiga ham ta'sir ko'rsatdi va bu sohada yangi ilmiy ma'lumotlar va ilmiy manbalar shakllanishiga turtki bo'ldi. 1990 yilga kelib, Rossiyalik tilshunos olim A.A.Ufimtseva giponimiya haqida shunday fikr yuritgan: "Giponimiya borliqdagi mantiqiy kategoriyalarni til orqali aks ettirishning asosiy vositasidir"¹.

Giponimiya tildagi tur va jins munosabatini aks ettiruvchi iyerarxik bog'lanishdir. Bu munosabatda kichik tushunchali so'zlar *tur* hamda katta tushunchali so'zlar *jins* ma'no jihatdan tobe bo'ladi. Giponim yunoncha *hypo* - ostida, pastda va *onyma* - nom

¹ А. А. Уфимцева Проблема Лексической Семантики. Москва: Наука .1990

degan ma'noni bildiradi. Giponim tor ma'noli va shu turga kiruvchi so'zdir, giperonim esa umumiy, keng ma'noni bildiruvchi so'z hisoblanadi. Chevarchilik sohasi asrlar davomida shakllanib kelgan boy terminologik bazaga ega. Ushbu bazani tizimlashtirishda **giperonim** (umumiy) va **giponim** (xususiy) tushunchalari asosiy o'rin tutadi. Bu munosabat tilning tejamkorligini va mantiqiy izchilligini ta'minlaydi. So'zlar orasidagi o'zaro aloqalardan biri giponimiya, ya'ni tur va jins munosabatidir. Giperonim - bu bir nechta so'zlarni bir guruhga jamlovchi, ularni umumlashtiruvchi asosiy so'z (masalan, "meva"). Giponim esa shu guruhning bir bo'lagi, ya'ni o'sha turning bir turi (masalan, "olma, anor"). Giponim o'z ichiga giperonimning ma'nosini ham qamrab olgani uchun, uning ma'no doirasi giperonimdan ko'ra aniqroq va mazmunga boyroq bo'ladi. Darhaqiqat, chevarchilik leksikasi o'ta tarmoqlangan tizimdir va uzoq yillik tarixga ega. Quyida keltirilgan chevarchilikka oid misollar asosan, ushbu sohaning asosiy keng tushunchadan tor tushunchaga tomon ketma-ket kelishini ko'rib chiqamiz. O'zbek tilidagi **tikuv qurollari** ni giperonim deb olsak, unga giponim bo'lib *igna, qaychi, angishvona, metr, bo'r va tegana* leksemalari esa bunga misol bo'la oladi. Yana bir misol keltirsak: **chok turlari** giperonim bo'lsa, *baxiya, ko'klov, zanjirsimon chok, aylanma chok, burma chok, qayirma chok, to'g'ri chok, tepsima chok, bostirma chok* va boshqalar giponimlar bo'ladi.

Quyidagi ingliz tilida misollar keltiramiz. Agar **sewing machine** leksemasini giperonim deb olsak, unga giponim quyidagi leksemalar kiradi. Bular: *needle* (igna), *bobbin housing* (moki), *needle throat plate* (igna plastinkasi), *thread guide* (ip o'tkazgich), *presser foot* (bosuvchi oyoqcha, lapka), *needle bar* (igna ushlagich), *foot pedal* (oyoq pedali) va boshqalar kiradi. Bu misolimizni quyidagi sxemadan yaqqol ko'rishimiz mumkin.



Giponimiya hodisasi tilning leksik-semantik tizimini shakllantiruvchi asosiy omillardan biridir. Chevarchilik terminologiyasi misolida ko'rib chiqilganidek, giponimik munosabatlar shunchaki so'zlar to'plami emas, balki mantiqiy izchillikka ega bo'lgan yaxlit tizimni ifodalaydi. Giperonim (umumlashtiruvchi tushuncha) va giponim (xususiy tushuncha) o'rtasidagi bog'liqlik soha leksikasini tartibga solishga, terminlarning o'zaro aloqasini aniq ko'rsatishga va tilning tejamkorlik tamoyilini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbek va ingliz tillaridagi tikuvchilik qurollari va chok turlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, giponimiya borliqdagi predmet va hodisalarni inson tafakkurida tizimlashtirishning universal lisoniy vositasidir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. H.Jamolxonov "HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI" Toshkent – "Talqin"- 2005
2. <https://izoh.uz/word/baxya>
3. Ergashovna, M. G., & Xoliqulovna, B. R. M. (2025). Translation Methods AND Challenges OF Sewing Terminology. *American Journal of Pedagogical and Educational Research*, 36, 52-54.
4. Mirzayeva, G. E., & Buranova, M. X. (2021). O'SIMLIK DUNYOSIGA OID FRAZEOLOGIK BIRIKMALAR INSON TAFAKKURI MAHSULI SIFATIDA, FRAZEOLOGIK BIRIKMALAMING KOGNITIV TAHLILI. *Scientific progress*, 1(6), 603-605.
5. Ш. Рахматуллаев "Узбек тилининг этимологик лугати" Тошкент "Университет" 2000
6. Vo'ronova, M., & Mirzayeva, G. (2022). SPECIFY HOW LEXIS IS GROUPEД. *Универсальная индексная библиотека Евразийского журнала социальных наук, философии и культуры*, 2(13), 307-308.
7. М Асомиддинова "КИЙИМ-КЕЧАК НОМЛАРИ" ТОШКЕНТ Узбекистон ССР "ФАН" нашриёти 1981.